




QUROLLI MOJAROLARDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH



Ergasheva Marjona

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

Kirish.

Inson zoti tug'ilishi bilanoq uning irqi,jinsi,millati,kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar teng,har xil-shaxsiy,ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy huquqlarga ega bo'ladi.Ushbu huquqlar turli xil zo'ravonliklardan,nohaqliklardan himoya qilinishga muhtoj,chunki nohaqliklar inson huquqlarining tengligiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.Bevosita yuqorida keltirilgan inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar inson huquqlari fanining predmetini tashkil etadi.Inson huquqlari faqat tinch davrlarda emas balki,urush,jang-u jadallar paytida ham himoya qilinishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


muhtojligi sababli inson huquqlari sohasidan alohida bir soha ajralib chiqdi. Bu soha xalqaro gumanitar huquqi deb ataladi. Z. Borsiyevaga ko'ra, xalqaro gumanitar huquq bu konvensiyaviy va odatiy me'yorlar majmuyi bo'lib, qurolli mojarolarda ishtirok etayotgan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ular tomonidan dahl qilingan xalqaro huquq subyektlarini quyidagilar nuqtayi nazaridan tartibga soladi:

- qurolli kurash olib borish vosita va usullarini qo'llash;
- yaradorlar, bemorlar, harbiy asirlar va fuqaro ahlini himoya qilish;
- ushbu me'yornlarni buzganlik uchun davlatlar va alohida shaxslarning javobgarligini belgilash⁶⁰.

Hozirgi kunda siyosiy munosabatlar jiddiylashib bormoqda, hattoki, bir necha davlatlar o'rtasida qurolli mojarolar ham bo'lib turmoqda. Bunga misol qilib, Rossiya va Ukraina, Falastin va Isroil davlatlari o'rtasidagi nizolarni keltirish mumkin. Aynan shunday nizolar davrida xalqaro gumanitar huquqi me'yorlari va normalariga amal qilinmagan holatlar ko'plab kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning shunday davom etishi xalqaro gumanitar huquqining yo'qolib ketishiga hamda birinchi va ikkinchi jahon urushlarida bo'lganidek inson qadr-qimmatining toptalishiga millionlab gunohsiz insonlarning o'limiga, asirlarning o'ta shafqatsizlik bilan qiynab o'ldirishlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, hozirgi kunda xalqaro huquqda xalqaro gumanitar huquqi normalariga rioya etilishini kuzatib borish va o'z majburiyatlarini bajarishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan davlatlar va askarlarni javobgarlikka tortish masalalari o'ta dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu huquq bizning davlatimiz uchun o'ta muhim emasdek tuyulishi mumkin, chunki O'zbekiston tinchlikparvar tashqi siyosat yuritadi. Buning isbotini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddadagi quyidagi norma orqali ko'rish mumkin: "O'zbekistonning tashqi siyosati kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, davlatlarning suveren tengligi kabi prinsiplarga asoslanadi". Aynan shu prinsiplarga rioya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi qurolli, harbiy bloklarga qo'shilmaydi va har qanday mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qiladi. Ammo, faqatgina bu jihatlar orqali O'zbekiston xalqaro gumanitar huquqini e'tibordan chetda qoldirolmaydi, chunki xalqaro gumanitar huquq davlatlar ichida bo'layotgan nizolar davomida inson huquqlarini himoya qilishni ham qamrab oladi.

Shunday ekan, ushbu tadqiqot ishida, xalqaro gumanitar huquqning predmeti, maqsadi, amal qilish chegarasi o'rganiladi, xalqaro inson huquqlari bilan o'xshash va farqli jihatlari solishtiriladi, xalqaro gumanitar huquq doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik tizimi tahlil qilinadi va xalqaro gumanitar huquq amaliyotda qanday ishlashi real holat asosida o'rganiladi.

⁶⁰ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-266-bet.





Ilmiy-nazariy qism.

Yuqorida xalqaro gumanitar huquqqa ta'rif berildi ammo u haqida batafsil to'xtalib o'tilmadi. Xo'sh xalqaro gumanitar huquq qanday paydo bo'lgan, uning rivojlanish tarixi qanday?

Amanda Alexandarga ko'ra, xalqaro huquqshunoslari xalqaro gumanitar huquqining tarixi haqida 2 xil fikrni ilgari surishadi. Biri insoniyatning urush va huquq hikoyasi, ikkinchisi esa imperializm va zulm hikoyasi⁶¹.

Ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xalqaro gumanitar huquqining tarixi quyidagicha hikoya qilinadi. Urush haqidagi barcha huquqiy aktlar urushga yakun yasash maqsadida ishlab chiqilgan⁶². Qadimgi davrdagilar, o'rta asr askarlari, yangi davrning yuristlari ushbu fikrni tasdiqlaydilar⁶³. Bu faqat g'arb davlatlari tomonidan berilgan fikr emas, balki sharq davlatlari, xususan, Yaponiya. Xitoy, Hindiston va boshqa islom davlatlari ham urush qoidalari haqida xuddi shunday urf-odatlariga ega bo'lishgan⁶⁴. Ushbu fikr universal bo'lishiga qaramay, urushlarni chegaralashga bo'lgan urinishlarni amalga oshirishda ko'plab to'siqlar mavjud bo'lgan. XIX asrdagina urushlar haqidagi hujjatlarni kodifikatsiyalash boshlandi hamda zamonaviy xalqaro gumanitar huquq paydo bo'ldi⁶⁵.

Xalqaro huquqshunoslari birinchi urush haqidagi kodifikatsiyalangan hujjat sifatida Lieber kodeksini keltirishadi va ular 1859-yildagi Salferiona Jangini zamonaviy xalqaro gumanitar huquq tarixida asosiy voqea deb hisoblashishadi⁶⁶. Shveytsariya fuqarosi, Henry Dunant yuqorida keltirilgan urushda qatnashgan hisoblanib, u yarador askarlarning azoblaridan qattiq aziyat chekkan, bu esa uni Qizil Xoch qo'mitasini tuzishga undagan⁶⁷. Bundan tashqari u 1864-yilgi harakatdagi qurolli kuchlardagi yaradorlar va bemorlarning qismatlarini yengillashtirish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasini qabul qilishga sababchi bo'lgan inson hamdir⁶⁸. Ushbu konvensiya xalqaro gumanitar huquqni tatibga solib turuvchi lik konvensiyadir, keyinchalik 1907-yilgi Gaaga⁶⁹, 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va qo'shimcha protokollari qabul qilingan.

⁶¹ *European Journal of International Law*, Volume 26, Issue 1, February 2015, 2-bet

⁶² Henckaerts and L. Doswald-Beck, for the International Committee of the Red Cross, *Customary International Humanitarian Law* (2005), at ix

⁶³ M. Sassòli and A.A. Bouvier, *How Does Law Protect in War?* (2006), at 124–125; T. Meron, *Bloody Constraint: War and Chivalry in Shakespeare* (1998), at 12.

⁶⁴ McCoubrey, *supra* note 7, at 8; Sassòli and Bouvier, *supra* note 14, at 124–125.

⁶⁵ Meron, *supra* note 14, at 12.

⁶⁶ Greenwood, *supra* note 7, at 21; Schindler, 'International Humanitarian Law: Its Remarkable Development and Its Persistent Violation', 5 *Journal of the History of International Law (J Hist Int'l L)* (2003), 165 at 167. Lieber Code, General Order no. 100 (24 April 1863).

⁶⁷ Greenwood, *supra* note 7, at 22.

⁶⁸ Henckaerts and Doswald-Beck, *supra* note 13, at ix. Geneva Convention for the Amelioration of the Condition of the Wounded and Sick in Armed Forces in the Field 1949, 75 UNTS 31.

⁶⁹ 'Protection of Civilians against the Effects of Hostilities under Customary International Law and under Protocol I', 1 *American University Journal of International Law and Policy (Am U J Int'l L & Policy)* (1986) 117, at 123. Hague Convention for the Pacific Settlement of International Disputes 1907, 2 *AJIL Supp.* 43 (1908). The Hague Conventions are not technically part of this tradition, but as the Hague and Geneva Conventions are now merged, they tend to be listed as part of this history.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xalqaro gumanitar huquq haqida yana bir hikoya borki, u rahm-shafqat va sivilizatsiya tarixi sifatida emas, balki zulm va imperializm tarixi sifatida tasvirlanadi. Mustamlakachilikdan keyingi va tanqidiy metodologiyalarga tayangan holda, huquqshunoslar harbiy yoki g'arb ehtiyojlari insonparvarlik qadriyatlarini doimiy ravishda mag'lub etib, tinch aholini urush ta'siri ostida qoldirib, ularning azob-uqubatlarini qonuniylashtirgan tarixni tasvirlaydilar. Ushbu tarixiy ma'lumotlarda shartnomalar katalogi murosaga kelish va pragmatizm litaniyasi sifatida ifodalangan. 1868 yilgi Sankt-Peterburg deklaratsiyasining ma'nosiz muvaffaqiyatsizligi shular jumlasidandir⁷⁰. Ushbu hikoya xalqaro gumanitar huquqi urushni qonuniylashtirgan degan g'oyaga asoslanadi, chunki qurolli mojarolarda inson huquqlarining himoya qilinishi to'g'risidagi xalqaro hujjatlarning ishlab chiqilishi xuddiki, urushga ruxsat berish degan bilan barobardir.

Zamonaviy xalqaro gumanitar huquq shu tariqa vujudga keldi. Xalqaro gumanitar huquqining tarixidan ma'lum bo'lganidek, ushbu huquqning asosiy maqsadi urushda qatnashmayotgan fuqarolarni, urushdan voz kechgan askarlarni urush ta'siridan himoya qilish, asirga tushgan askarlarga insoniylik bilan muomala qilish hamda urushda ishlatiladigan ma'lum bir qurollardan voz kechish, ayrimlarini cheklashdan iboratdir. Endi, o'z-o'zidan savol vujudga keladi. Xalqaro inson huquqlari sohasining asosiy vazifasi barchaga teng huquqlarni ta'minlab berish va ijtimoiy adolatsizlikka yo'l qo'yilganda, huquqlari buzilgan shaxslarning huquqlarini tiklashdan iboratdir. Demak, urush paytlarida yo'l qo'yilgan insonlarning huquqlari buzilishini ham xalqaro inson huquqlari sohasi qamrab olar ekan. Ammo bu xalqaro gumanitar huquqning ham vazifasi emasdimi? Xo'sh, xalqaro inson huquqlari va xalqaro gumanitar huquqning asosiy va farqli jihatlari nimalardan iborat, xalqaro gumanitar huquqining chegarasi qayerda?

Xalqaro gumanitar huquqqa ta'rif berilganda, qurolli mojarolarda ishtirok etayotgan taraflarning o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalar yig'indisi deb aytib o'tildi. Demak, xalqaro gumanitar huquq qo'llanilishi uchun qurolli mojaro bo'lishi talab etilarkan. Z. Borsiyevaga ko'ra, qurolli mojarolarning ikki turi mavjud: xalqaro qurolli mojarolar va noxalqaro qurolli mojarolar⁷¹.

Xalqaro qurolli mojarolarga ta'rifni Jeneva Konvensiyasi I Protokoli, 1-moddasining, 4-bandidan topish mumkin. Unga ko'ra, davlatlar o'rtasidagi to'qnashuv: mustamlaka hukmronligi va chet el bosqiniga qarshi va irqchilik tartibiga qarshi BMT ustaviga muvofiq o'z taqdirini o'zi belgilash uchun kurash qurolli mojaro hisoblanadi. Jeneva Konvensiyasining II Protokoliga ko'ra esa, noxalqaro qurolli mojaro-qaysisdir davlat hududida uning qurolli kuchlari va hukumatga qarshi qurolli kuchlar o'rtasida yoki mas'ul qo'mondonlik ostida bo'lib, mazkur davlatning muayyan hududi ustidan nazoratni

⁷⁰ Henckaerts and Doswald-Beck, *supra* note 13, at ix; Jaworski, "Military Necessity" and "Civilian Immunity": Where is the Balance?, 2 *Chinese J Int'l L* (2003) 175 at 179–180.

⁷¹ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017. –275-bet.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

amalga oshirayotgan va shu boisdan uzluksiz kelishilgan harbiy harakatlar olib borish va II Protokolni qo'llash imkonini beradigan boshqa qurolli guruhlar o'rtasida yuz berayotgan qurolli mojarolardir. Bundan tashqari xalqaro gumanitar huquq urushda qatnashmayotgan yoki qatnashishdan voz kechgan fuqarolarnigina himoya qilishga qaratilgan hisoblanib, ularga harbiy harakatlarda bevosita qatnashishlariga ruxsat berilmaydi va shu bilan birgalikda harbiy askarlar faqat urushlarda ma'lum bir qurollardan foydalanishni cheklashga bog'liq bo'lgan normalar orqaligina himoya qilinadilar. Shunday qilib, xalqaro gumanitar huquq xalqaro va noxalqaro qurolli mojarolar paytidagina ma'lum bir shaxslarga (yuqorida to'xtalib o'tildi) nisbatan qo'llanilar ekan. Inson huquqlari esa chegara bilmaydi, ya'ni inson huquqlari universal hisoblanib, u har qanday holatda va har qanday shaxsga nisbatan teng ravishda qo'llaniladi va ularning himoyasi kafolatlanadi.

Xalqaro gumanitar huquq quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- xalqaro gumanitar huquqining umumiy prinsiplari;
- urushayotgan tomonlarning urush olib borish vosita va usullarini tanlashlarini cheklash prinsipi;
- harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan yoki bevosita ishtirok etishni to'xtatgan harbiy harakat ishtirokchilari va shaxslarning himoyasini ta'minlash prinsipi⁷².

Umumiy prinsiplar. Umumiy prinsiplarga quyidagilar kiradi: insoniylik, kamsitish va tahqirlashning nojizligi prinsipi, farqlashni o'tkazish prinsipi⁷³.

Insoniylik. Ushbu prinsip eng asosiy va universal prinsiplardan biri hisoblanib, u qurolli mojarolarni olib borishning barcha qoidalarida qo'llaniladi, xususan, urush olib borish vosita va usullarini tartibga solishda, harbiy mojarolar jabrdiydalarining himoyasini ta'minlash maqsadida. Ushbu prinsip quyidagi qator hujjatlarda o'z aksini topgan:

- ✓ Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari (1990);
- ✓ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966);
- ✓ Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (1978);
- ✓ Harbiy asirlarga munosabat to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1949)


Masalan, "Harbiy asirlarga munosabat to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi" 13-moddasining qoidasi urushayotgan tomonlardan harbiy asirlarga nisbatan "hamisha insoniy munosabatda bo'lishni" talab etadi⁷⁴.

Tahqirlashning nojizligi prinsipi-unga muvofiq qurolli mojaroning xususiyatidan qat'iy nazar, homiylikdagi shaxslarga nisbatan munosabatda irqi, terisining rangi, tili, dini, millati, siyosiy va boshqa maslagi, ijtimoiy, mulkiy holati yoxud boshqa mezonlari ahamiyat kasb etmasligi lozim. Xalqaro gumanitar huquqini qo'llash chog'ida nomuvofiq ayirmachilikka yo'l qo'yish taqiqlanadi. Tahqirlamaslik prinsipini

⁷² Калугин В.Ю. Курс международного гуманитарного права. Минск: Тесей, 2006. - С.79.

⁷³ Жан Пикте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. М. МККК., 2001. - С 75

⁷⁴ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. -T.: TDYU nashriyoti, 2017.-269-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aniqlashtiruvchi xalqaro gumanitar huquq normalari xalqaro va ichki qurolli mojarolar chog'ida qo'llaniladigan odatiy xalqaro normalar sifatida qo'llaniladi. Ular uchinchi va to'rtinchi Jeneva konvensiyalari hamda ularga Qo'shimcha protokollarda asosiy kafolatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, mazkur prinsip I Qo'shimcha protokolning 1,9,43,44-moddalarida o'z ifodasini topgan⁷⁵.

Farqlashni o'tkazish prinsipi-fuqaro aholi va kombatanlar o'rtasida hamda harbiy va fuqaro obyektlari o'rtasida jiddiy farqlashga asoslangan. Mazkur prinsipning mazmuni quyidagi talablar yig'indisidan tashkil topadi: shaxslar bo'yicha cheklov va obyektlar bo'yicha cheklov o'tkazish⁷⁶.

Shaxslar bo'yicha cheklov o'tkazish deganda, asosan non-kombatant hamda kombatanlar o'rtasidagi farqni anglash va non-kombatantlarga qarshi hujum qilmaslikni tushunish lozim. Kombatanlar-nizolashayotgan tomonlar qurolli kuchlari tarkibiga kirgan, tibbiy va diniy xodimlardan tashqari, shaxslardir va ular harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etish huquqiga ega shaxslar⁷⁷. Bu huquq mavjudligi shuni ko'rsatadiki, kombatan kuch ishlatish huquqiga egadir. Bu yerda u o'z amallari uchun shaxsiy javobgar emas, ammo kuch fuqaro shaxs tomonidan ishlatilsa, unda fuqaro shaxslar javobgarlikka tortilgan bo'lar edilar. Shunday ekan, dushmanga nisbatan kuch ishlatib, kombatan bo'lmagan shaxs kombatan maqomi imtiyozlaridan foydalana olmaydi. Harbiy harakatlarda noqonuniy ishtiroki uchun u milliy qonunchilik normalari asosida javobgarlikka tortiladi. Bu harakatlar xalqaro gumanitar huquqining buzilishi sifatida baholanishi kerak. Jeneva konvensiyalarining birinchi, ikkinchi protokollari 13-moddalari, uchinchi protokolning 4-moddasi asosida ko'ngillilar kombatan sifatida tan olinadi. Kombatan maqomiga yana dushman yaqinlashganda hujum qilayotgan qo'shnlarga qarshi kurash olib borish uchun ixtiyoriy ravishda qo'lga qurol olgan egallanmagan hududning aholisi ega bo'ladi⁷⁸. Xalqaro gumanitar huquqqa muvofiq kombataning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- o'zini fuqaro shaxsidan farq qilish
- harbiy amaliyotlarni o'tkazgan paytda insoniyat talablari va harbiy zarurat o'rtasida muvozanatni bilish⁷⁹.

Farqlash prinsipi ayni navbatda kombatanlardan tibbiy va diniy xodimlarni ajratish deganini ham bildiradi, ya'ni tibbiy va diniy xodimlarga nisbatan qurolli otishmalarni amalga oshirish taqiqlanadi. Ushbu prinsipning buzilishi 20 kun oldin, ya'ni 23-mart kuni


⁷⁵ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-270-bet

⁷⁶ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-271-bet

⁷⁷ Руководство по толкованию понятия о непосредственном участии в военных действиях, в соответствии с МГП» (Разъяснительные рекомендации). Interpretive guidance on the notion of direct participation in hostilities under IHL. Nils Melzer. 2009.

⁷⁸ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-290-bet

⁷⁹ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-291-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Isroil tomonidan amalga oshirilganligi kuzatilgan. Guardian gazetasining xabar berishicha, 2025-yil 23-mart kuni G'azo sektorida Isroil mudofaa kuchlari tomonidan amalga oshirilgan hujumda 15 nafar tibbiy xodim va qutqaruvchilar, jumladan Falastin Qizil Yarim Oy jamiyatining sakkiz nafar xodimi halok bo'lgan. Autopsiya natijalari ularning yuqori tana qismiga "o'ldirish maqsadida" o'q uzilganini ko'rsatdi⁸⁰. Bu esa aynan xalqaro gumanitar huquqning farqlash prinsipi buzilganligini anglatadi.

Obyektlar bo'yicha cheklov o'tkazish hujum qat'iy ravishda faqat harbiy obyektlarga hamla qilish bilan cheklanish shartligini nazarda tutadi. Bu prinsipning qo'llanilishi "fuqaro obyekti" va "harbiy obyekti" tushunchalari bilan bog'liqdir⁸¹. Qo'shimcha 1-Protokolning 52-moddasi 1-bandiga ko'ra, fuqaro obyektlari, deganda 2-bandda tushuncha berilgan harbiy obyektlar qatoriga kirmaydigan boshqa obyektlar tushuniladi. Harbiy obyektlarning ta'rifi esa aynan shu moddaning 2-bandida keltirib o'tilgan. Unga ko'ra quyidagilar harbiy obyektning asosiy belgilarini tashkil etadi:

- Obyekt "harbiy harakatlarga samarali ulush qo'shishi zarur;
- Obyektning vayron etilishi tegishli shar-sharoitda sezilarli harbiy ustunlik berilishi zarur.

Agar obyekt borasida shubha tug'lsa, ushbu obyekt fuqarolik obyekti prezumpsiyasiga asoslangan holda fuqarolik obyekti deb taxmin qilinishi kerakligi qo'shimcha 1-protoklning 52-moddasida o'z aksini topgan, ya'ni agar ibodat maskani, uy yoki boshqa xil turar-joy imorati yoxud maktabdan harbiy harakatlarni samarali qo'llab-quvvatlashda foydalanilayotgani borasida muayyan gumon mavjud bo'lsa, ushbu turdagi imoratlar fuqarolik obyekti deb taxmin qilinib, ushbu binolarda qurolli otishmalar amalga oshirilmasligi kerak.

Harbiy harakatlarni olib borishning usullari va vositalarini cheklash prinsipi. Harbiy harakatlar yuritish vositalari deganda qurol, harbiy texnika va mojaro qilayotgan tomonlardan raqibga zarar va zarba berish maqsadida qo'llaniladigan vositalar tushuniladi⁸². Cheklangan vositalarga misol qilib kimyoviy, biologik qurollarni, yerga o'rnatilgan minalarni, kassetali bombalarni, lazerli ko'r qiluvchi qurollarni keltirish mumkin.


Harbiy harakatlar usullari bu-qurolli mojaro vositalarini qo'llashning uslublari va tartibidir⁸³. Masalan, hech kimni ayamay otish, butun bir aholi yashaydigan hududni bombalash, urush asirlarini qiynash, fuqaro obyektlarini nishonga olish kabilar harbiy harakatlar usullarining nojoizligiga misol bo'la oladi. 1945-yil 6-avgustda AQSH

⁸⁰ <https://www.theguardian.com/world/2025/apr/07/gaza-paramedics-shot-in-upper-body-with-intent-to-kill-red-crescent-says>

⁸¹ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-291-bet

⁸² Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-292-bet

⁸³ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-292-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tomonidan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga “Enola Gay” nomli B-29 bombardimonchi samolyoti “Little Boy” deb nomlangan uran asosidagi atom bombasini tashlanganligi⁸⁴ ham harbiy harakatlarni olib borishning usullari ham vositalarini cheklash prinsipiga zid. AQSHning atom bombasini butun bir aholi yashaydigan hududga tashashi harbiy harakatlar usullari buzilishiga, taqiqlangan uran asosidagi atom bombasini ishlatishi esa harbiy harakatlarni yuritish vositalarini cheklash prinsipiga zid hisoblanadi.

Urush olib borishning taqiqlangan usullari va vositalariga cheklovlar o’rnatuvchi asosiy hujjatlar 1907-yilgi Gaaga nizomi, 1949-yilgi Jeneva konvensiyasiga 1977-yilgi Qo’shimcha protokollar va qurollarning konkret turlariga nisabatan qabul qilingan bir qator shartnomalardir⁸⁵, jumladan 2008-yilgi kassetli jang qurolini taqiqlash haqidagi konvensiya, 1997-yilgi piyodalarga qarshi minalarni taqiqlash haqidagi Ottava konvensiyasi.

Huquqiy asoslar.

Xalqaro gumanitar huquqning asosiy manbalari odatlar va shartnomaviy normalardan tashkil topgan.

Z. Borsiyevaga ko’ra, zamonaviy xalqaro gumanitar huquqda kodekslashtirilgan tarmoqlar 2 xil tarzda tashkil etiladi:


–“Jeneva” huquqi, uning maqsadi-safdan chiqqan harbiy xizmatchilarga hamda harbiy harakatlarda faol ishtirok etmayotganlarga, ya’ni fuqaro aholiga himoya taqdim etishdan iborat⁸⁶. Ushbu huquq konvensiyalar orqali musathkamlab qo’yilgan va quyidagi konvensiyalar va protokollar “Jeneva” huquqini tashkil etadi:

1. Urush vaqtida yarador va kasal bo’lgan harbiylarni hamda tibbiy xizmat xodimlarini himoya qilish to’g’risidagi konvensiya. Ushbu konvensiya tibbiy-sanitariya xodimlariga, ularning transport vositalariga hujum qilmaslikni, tibbiy xodimlar ishlatayotgan transport vositalari qanday emblemaga ega bo’lishi kerakligi (asosan oq rangli asosga tushirilgan qizil xochning geraldika mazmunidagi belgisi va qurolli kuchlar sanitar xizmatlarining emblemasi farqlovchi belgi sifatida saqlanib kelmoqda, ammo hozirgi kunda oq rangli asosda qizil xoch o’rniga qizil yarim oy yoki qizil sher va quyosh tasviri ishlatayotgan davlatlar holatida, ushbu emblemalar ham teng asosda e’tirof etiladi) (38-modda), istilo etilgan hududlarda istilo etgan davlat tomonidan bemor hamda yarador shaxslar to’g’risidagi ma’lumotlar ma’lumotlar byurosiga yuborilishi kerakligi, vafot etganlar esa qaysi dinga e’tiqod qilishiga qarab dafn etilishi yoki yondirib yuborilishi va vafot etganlar to’g’risidagi ma’lumotlar ham ma’lumotlar byurosiga

⁸⁴ <https://www.britannica.com/question/What-were-the-results-of-the-atomic-bombings-of-Hiroshima-and-Nagasaki>

⁸⁵ Xalqaro huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017. –292-bet

⁸⁶ Xalqaro huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017. –284-bet





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuborilishi kerakligi istilo etgan davlatga majburiyat sifatida yuklatib qo'yilgan(16-modda).

2.Dengizdagi,qurolli to'qnashuvlar chog'ida yarador,kasal va cho'kayotgan harbiy xizmatchilarni himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi.Ushbu konvensiya dengiz urushi holatida gumanitar me'yorlarni ta'minlashga qaratilgan normalarni tartibga soladi.Kasallar,cho'kayotganlar har qanday holatda ham himoyaga olinishi(12-modda),tibbiy kemalar va ularning xodimlariga hujum qilish taqiqlanganligi(22-25-moddalar),tibbiy xodimlar va diniy xizmat ko'rsatuvchilar neytral maqomga egaligi,o'z vazifalarini erkin bajarishi lozimligi(36-modda),harbiy kemalar imkon boricha cho'kayotgan dushman kemasi ekipajini ham qutqarishi kerakligi (18-modda) to'g'risidagi normalar konvensiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

3.Asirga olingan harbiy xizmatchilar bilan muomala qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi.Ushbu konvensiyada asirga olingan harbiy xizmatchilarga insoniylik bilan muomala qilinishi(13-modda),agar asirga olinganlar ayollar bo'lsa,ularga erkaklardan yaxshiroq tarzda sharoit yaratib berilishi(14-modda),tergov paytlarida asirga tushgan xizmatchilarning shaxsiy muklari(harbiy aslaha anjom,qurol-yarog'lar) olib qo'yilishi taqiqlanganligi(18-modda),faqat bu qoida pullarga nisbatan tatbiq etilmasligi,ya'ni asirga tushgan harbiy xizmatchining puli faqat ofitserning buyrug'i bilan pul miqdori va pul egasining ma'lumotlari maxsus reyesterga kiritilgandan so'ng olib qo'yilishi mumkinligi(18-modda),tergov paytida asirga tushgan harbiy xizmatchi qanday shaxsiy ma'lumotlarni tergovchiga oshkor qilishga majburligi(17-modda) hamda asirga tushgan harbiy xizmatchining asirda saqlash qoidalari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.Konvensiyaga ko'ra,asirga olish davlatlar o'rtasidagi nizo hal qilingunga qadar davom etadi,nizo bartaraf etilgach esa asirlar ozodlikka chiqarilib,o'z Vataniga qaytarilishi zarur.

4.Urush vaqtida tinch aholini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi.Ushbu konvensiya 159 ta moddadan iborat hisoblanib,asosiy mazmunini tinch aholining hayoti,sog'lig'i,sha'ni hurmat qilinishi lozimligi(3-modda),bosib olingan hududlarda harbiy kuchlar tinch aholiga nisbatan zo'ravonlik ishlatmasligi,majburan ko'chirmasligi kerakligi(49-modda),dushman nazorati ostida qolgan fuqarolar alohida himoyaga ega bo'lishi kerakligi(4-modda),jismoniy qiynoqlar va nomaqbul muomala taqiqlanganligi(32-34-moddalar),Qizil Xoch va boshqa tashkilotlar fuqarolarga yordam ko'rsatishi mumkinligi(9,10,59-moddalar),barcha tinch aholiga tibbiy yordam ko'rsatilishi lozimligi(16-20-moddalar) kabi normalar tashkil etadi.

5.I Protokol(1977)-Xalqaro qurolli to'qnashuvlarga oid.Bu protokol zamonaviy qurolli mojarolarning murakkab sharoitlariga mos ravishda Jeneva konvensiyalarini to'ldiradi va insonparvarlik normalarini kengaytiradi.Qo'zg'olonchilar,milliy ozodlik harakatlaridagi jangchilar ham ayrim shartlar asosida harbiy maqomga ega bo'lishi mumkinligi(43-44-moddalar),urush paytida atrof-muhitga keng ko'lamli(55-modda),uzoq muddatli va og'ir zarar yetkazish man etilishi,ba'zi qurollar(masalan,zaharli gazlar) yoki harakatlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

(masalan,xufiyona hujumlar fuqarolarga qarshi) taqiqlanishiga (35-modda) oid normalar konvensiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.Ushbu protokol orqali xalqaro qurolli mojarolarda qo'llaniladigan himoya choralari kengaytirildi va yangilandi.

6.II Protokol(1977)-Xalqaro bo'lmagan(ichki)qurolli to'qnashuvlarga oid.Ushbu protokol davlatlar ichida bo'layotgan qurolli mojarolarga nisbatan ushbu mojarolarda jabr ko'rgan qurbonlarning himoyasi uchun qo'llaniladi va protokol 1949-yilgi Jeneva konvensiyasining 3-moddasini to'ldirish maqsadida qabul qilingan.


7.III Protokol(2005)-Qo'shimcha ayirboshlash belgisi (qizil kristall belgisi) joriy etilishi haqida.Uchinchi protokol asosan tibbiy va diniy jamiyatlarga din,siyosiy maqom berilishi kerak emasligini ta'kidlab,shunga qaramay birinchi va ikkinchi protokollarda keltirilgan qizil xoch,qizil yarim oy va boshqa emblemalarni tan olib,yangi emblemani kiritadi.Ushbu emblema oq asosga qizil romb shaklida chizilgan hisoblanib,undan tibbiyot va diniy xodimlarga foydalanishga ruxsat etiladi.

-Gaaga huquqi,urushayotgan tomonlarning urush harakatlari olib borishdagi huquq va majburiyatlarini belgilaydi hamda raqibga zarar yetkazishning vosita va usullarini tanlashni cheklaydi.Aynan Gaaga konvensiyalari keng munosabatlarni qamrab olgan Jeneva konvensiyalariga asos bo'ldi.Gaaga huquqi quyidagi konvensiyalardan tashkil topgan:

1.1899-yilgi Gaaga konvensiyasi.Bu konvensiya asosan urushni tartibga solish,urushni boshqarish va xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish usullarini belgilaydi va ushbu konvensiya 13 ta modda va qo'shimcha 3 ta protokoldan iborat.

2.1907-yilgi konvensiya.Bu konvensiya xalqaro urushlarda qabul qilingan normalarni kengaytiradi va qo'shimcha moddalarda jangovor va tinch aholini himoya qilishga oid qoidalarni o'z ichiga oladi.Ushbu konvensiya jami 107 ta modda hamda 3 ta protokoldan tashkil topgan.

Milliy qonunchilik.O'zbekiston Respublikasi tinchlikparvar tashqi siyosatni amalga oshiradi,shunday ekan O'zbekiston Respublikasida qurolli mojarolarda inson huquqlarini himoya qilish uchun alohida qonunchilik hujjatlari mavjud emas,chunki birinchidan davlatimiz tinchlikparvar tashqi siyosat yuritadi,bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida belgilab qo'yilgan inson huquqlari har qanday holatda ham qo'llaniladi.Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki,O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida tinchlik va xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar belgilangan hisoblanib,ushbu belgilash O'zbekistonda urush davri bilan bog'liq munosabatlar oz bo'lsa-da tartibga solinganligini isbotlaydi.Ikkinchidan O'zbekiston qurolli mojarolarda inson huquqlarini himoya qilish borasidagi xalqaro konvensiyalarning hech birini ratifikatsiya qilmagan.Ammo,O'zbekiston milliy axborot agentligining xabar berishicha,inson huquqlari bo'yicha milliy markazida Jeneva konvensiyalari hamda ularga qo'shimcha protokollar qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazilgan,ushbu tadbirda xalqaro hujjatlarning lotin imlosidagi o'zbek alifbosida chop etilgan yangi nashri taqdimoti bo'lib o'tgan va O'zbekistonga Jeneva konvensiyalari va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ularning qo'shimcha protokollarini ratifikatsiya qilib, bu xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalarini milliy huquqiy tizim bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, keng ko'lamli ma'rifiy ishlar amalga oshirish majburiyati yuklangan⁸⁷.

Odatlar.

Odat-xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallangan xalqaro ommaviy huquqning manbalardan biri. Hozirgi xalqaro gumanitar huquq holatining butun qamrovli tadqiqoti, xalqaro konvensiyalar va sud qarorlarining tahlili shuni isbotladiki, Jeneva konvensiyalari va Qo'shimcha protokollar normalarining aksariyati bugungi kunda odatiy huquqiy normalari xususiyatiga ega bo'lib, xalqaro gumanitar huquqning qo'sh huquqiy tabiatga egaligi haqida xulosalarga kelishga imkon beradi.⁸⁸

Sud va inson huquqlari bo'yicha organlar amaliyoti.

Xalqaro gumanitar huquqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarning aksariyatini insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar yoki madaniy merosni buzish bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etadi. Ushbu turdagi jinoyatlar uchun harbiy generallar, qo'mondonlar, harbiy guruh boshliqlari javobgarlikka tortiladi. Ayni paytda, davlatlar ham moddiy javobgarlikka torilishlari mumkin, moddiy javobgarlikning asosini esa zararni qoplash bilan bog'liq choralar tashkil etadi. Endi esa gumanitar huquq buzilishi bilan bog'liq real Xalqaro jinoyat sudi tomonidan ko'rib chiqilgan keysni tahlil qilsak.

Keysning qisqacha tavsifi. Al-Mahdi Timbuktuni shahridan 100 km g'arbda joylashgan Agouneda tug'ilgan. U Timbuktuni okkupatsiya qilishda juda faol bo'lgan. U Islomiy Mag'ribda joylashgan Al qoida bilan qo'shilgan Tuareg harakatining a'zosi hisoblangan va yuqorida keltirilgan 2 ta harbiy guruhlar boshliqlari bilan yaqin aloqada bo'lgan hamda ular tuzgan tuzilmalarda faol harakat qilgan. Unga 10 ta madaniy obyektga qarshi qilgan hujumlari uchun ayblovlar qo'yilgan, hujum qaratilgan binolarning ko'pchiligi vayron qilingan, ayrimlari esa zarar ko'rgan. Ushbu ish Xalqaro jinoyat sudi tomonidan ko'rib chiqilgan va Al-Mahdiga nisbatan 9 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi va 2.7 mln yevro miqdorida Timbukto aholisiga to'lov to'lashi bilan bog'liq reparatsiya jazosi berilgan⁸⁹.


Keysning mavzuga bog'liqligi. Al-Mahdi tomonidan sodir etilgan jinoyat xalqaro gumanitar huquqning ham buzilishiga sababchi bo'lgan. Ularni quyidagi asoslar orqali izohlash mumkin:

-birinchidan, yuqorida xalqaro gumanitar huquqning umumiy prinsiplari orasida farqlash prinsipi alohida ko'rsatib o'tildi. Farqlash prinsipi obyektlar va shaxslarning cheklanishi bilan bog'liq prinsiplar edi. Ayni Al-Mahdi tomonidan 10 ta binoga qarshi qilingan hujumlar obyektlar cheklanishi bilan bog'liq bo'lgan farqlash prinsipini buzilishiga sababchi bo'lgan;

⁸⁷ https://uza.uz/oz/posts/jeneva-konvensiyalari-ozbek-tilida-nashr-etildi_669711

⁸⁸ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-287-bet

⁸⁹ <https://www.icc-cpt.int>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


-ikkinchidan,"Fuqaro aholini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi" va xalqaro qurolli mojarolarga oid I protokolning 53-moddalarida istilochi davlatlarning xususiy shaxslar yoki davlat, jamoalar yoki ijtimoiy va kooperativ tashkilotlarning xususiy yoxud jamoa mulki hisoblangan ko'char va ko'chmas mol-mulkni har qanday yo'q qilish taqiqlanishi berib o'tilgan. Aynan davlat ko'char va ko'chmas mol-mulkleri deyilganda madaniy binolar ham tushuniladi. Ushbu qoida gumanitar huquqning asosiy manabalaridan biri bo'lgan Jeneva konvensiyalarida qoida sifatida belgilab qo'yilgan. Demakki, Al-Mahdining 10 ta madaniy binolarga qarshi hujum qilishi va ularga zarar yetkazishi va ko'pchiligini vayron qilishi bilan bog'liq harakatlari Jeneva konvensiyasi 53-moddasini buzilishi deb e'tirof etiladi va bu xalqaro gumanitar huquqining ham buzilishiga olib keladi.

Xulosa.

Dunyoda davlatlar manfaatlari mavjud ekan, urushlar hech qachon tugamaydi, ularni tugatishga bo'lgan urinishlar esa shunchaki samarasiz. Urushlarni tugatishning imkoniyati yo'q ekan, hech bo'lmaganda urushlarda inson huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmasligini va har doim inson qadr-qimmati toptalishi oldini olinishi uchun dunyoda xalqaro gumanitar huquq har doim bo'lishi lozim. U hozirda nima maqsadda yaratilgan bo'lsa o'sha maqsadga xizmat qilmoqda, kelajakda esa uning ishlashi takomillashtirilib, o'z vazifalarini yanada mukammalroq amalga oshirishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.-443-bet
2. European Journal of International Law, Volume 26, Issue 1, February 2015, 2-bet
3. Henckaerts and L. Doswald-Beck, for the International Committee of the Red Cross, Customary International Humanitarian Law (2005), at ix
4. M. Sassòli and A.A. Bouvier, How Does Law Protect in War? (2006), at 124–125; T. Meron, Bloody Constraint: War and Chivalry in Shakespeare (1998), at 12.
5. Protection of Civilians against the Effects of Hostilities under Customary International Law and under Protocol I', 1 American University Journal of International Law and Policy (Am U J Int'l L & Policy) (1986) 117, at 123. Hague Convention for the Pacific Settlement of International Disputes 1907, 2 AJIL Supp. 43 (1908). The Hague Conventions are not technically part of this tradition, but as the Hague and Geneva Conventions are now merged, they tend to be listed as part of this history.
6. Калугин В.Ю. Курс международного гуманитарного права. Минск: Тесей, 2006. - С.79.
7. Руководство по толкованию понятия о непосредственном участии в военных действиях, в соответствии с МГП» (Разъяснительные рекомендации). Interpretive guidance on the notion of direct participation in hostilities under IHL. Nils Melzer. 2009.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

8. Quruqlikdagi qurolli kuchlar tarkibidagi yaralangan va betoblarning holatini yengillashtirish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1949-yil 12-avgustda qabul qilingan, 1950-yil 21-oktabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 75-jild, 31-bet

9. Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidagi yaralangan, betob va kemalardan cho'kkan shaxslar bilan muomala qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1949-yil 12-avgustda qabul qilingan, 1950-yil 21-oktabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 75-jild, 85-bet.

10. . Harbiy asirlar bilan muomala qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1949-yil 12-avgustda qabul qilingan, 1950-yil 21-oktabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 75-jild, 135-bet.

11. Urush vaqtida fuqaroviy shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1949-yil 12-avgustda qabul qilingan, 1950-yil 21-oktabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 75-jild, 287-bet.

12. Qurolli mojarolarning qurbonlarini xalqaro nizolar holatida himoya qilish to'g'risidagi Qo'shimcha protokol (I-Protokol) (1977-yil 8-iyunda qabul qilingan, 1978-yil 7-dekabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 1125-jild, 3-bet.

13. Qurolli mojarolarning qurbonlarini xalqaro tusga ega bo'lmagan nizolar holatida himoya qilish to'g'risidagi Qo'shimcha protokol (II-Protokol) (1977-yil 8-iyunda qabul qilingan, 1978-yil 7-dekabrda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 1125-jild, 609-bet.

14. Xalqaro gumanitar huquqni qo'llashni mustahkamlash bo'yicha Qo'shimcha protokol (III-Protokol) — qo'shimcha ayirish belgisi haqidagi protokol (2005-yil 8-dekabrda qabul qilingan, 2007-yil 14-yanvarda kuchga kirgan). // BMT Shartnomalar to'plami, 2404-jild, 261-bet.

15. <https://www.theguardian.com/world/2025/apr/07/gaza-paramedics-shot-in-upper-body-with-intent-to-kill-red-crescent-says>

16. <https://www.britannica.com/question/What-were-the-results-of-the-atomic-bombings-of-Hiroshima-and-Nagasaki>

17. https://uza.uz/oz/posts/jeneva-konvensiyalari-ozbek-tilida-nashr-etildi_669711

18. <https://www.icc-cpt.int>

